

13-mavzu: "Baliq ovida" sheri (Mahmud To'ychiyev)

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy: o'quvchilarni she'r matni bilan tanishtirish, mazmunini tushuntirish, she'rni ifodali o'qishni o'rgatish.

b) tarbiyaviy: o'quvchilarga tabiatni asrash har bir insonning burchi ekanligini tushuntirish, ularni tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalash.

c) rivojlantiruvchi: o'quvchilarning ifodali o'qish ko'nikma va malakalarini, mustaqil va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

Dars turi: Yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi

Dars metodi: Suhbat, tushuntirish, "Klaster" usuli, savol-javob, ta'limiy o'yinlar.

Dars jihozi: Mavzuga oid rangli rasmlar, tarqatma materiallar

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism.

Salomlashish.


O'quvchilarni darsga hozirlash.

Ma'naviyat daqiqasi o'tkazish.

II. Uy vazifasini so'rash va o'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Uyga berilgan vazifa – "Hunarning hidi qanaqa?" she'rini o'quvchilar yoddan aytib beradilar.

"Klaster" usuli. She'rda nomlari keltirilgan kasb-hunarlarining nomlarini ayting.



"Quvnoq daqiqa" mashqi.

O`quvchilar darslikda berilgan she'riy topishmoqning javobini topadilar.

Qani toping-chi...

O`n bitta baliq bugun
Daryoda xo`b suzishdi.
Baliqchining to`riga
To`rttasi tappa tushdi.

So`ngra yana uchtasin,
Baliqchi ushlab oldi.
Qani toping-chi,o`rtoq
Nechtasi qochib qoldi?

Javob:4tasi

III.Yangi mavzu bayoni.

Quyidagi savollar orqali yangi mavzu e`lon qilinadi:

- Nega men bittabaliq tutolmagan vaqtda, siz bir nechta baliq tuta olasiz?
- Siz baliq ovida bo'lganmisiz?
- Baliqchilar qo'llaydigan sirli usullarni bilasizmi?

"Baliq ovida" she'ri. She'r muallifi Mahmud To'ychiyev haqida ma'lumot beriladi. Yangi mavzu o'quvchilarga o'qituvchi tomonidan ifodali o'qib beriladi. Mazmuni tushuntiriladi.

Lug'at ishi:

Intiq – intizor

Yiroq – uzoq

"Baliq ovida " she'ri o'quvchilarga zanjir usulida o'qitiladi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Savollar:

1. Baliq oviga necha nafar bola bordi?
2. Baliq oviga kim borishni xohlamadi?
3. Tabiat qo'ynida dam olish bolalarga qanday zavq berdi?
4. Nortoy baliq oviga bormagani uchun afsuslandimi?
5. Siz ham baliq oviga borganmisiz?

"Mening loyiham" mashqi.

Baliq ko'paytirish loyihasi haqida o'ylab ko'ring. Baliqlarni qanday ko'paytirish mumkin?

O'quvchilar javoblari tinglanadi. O'qituvchi xulosa qiladi.

Mashq daftar bilan ishlash.

1-topshiriq. Baliq ovida bo'lganmisiz? Baliq ovidagi taassurotlaringizga asoslanib, 4 ta gapdan iborat matn tuzing.

O'quvchilar mustaqil bajaradilar.

2-topshiriq. Berilgan ma'lumotlar to'g'ri yok noto'g'ri ekanini aniqlang.

To'g'ri gaplarga ✓, noto'g'ri gaplarga ✗ belgisini qo'ying.

T/r	Ma'lumotlar	✓	✗
1.	Nortoy baliq oviga bordi.		✗
2.	Omon chuvalchangni qarmoqqa ilaman deb barmog'ini shikastladi.	✓	
3.	Nortoy juda ko'p baliq tutdi.		✗
4.	Dilshod laqqa baliqni tutolmay, o'zi laqqa tushdi.	✓	
5.	Baliq ovidan qaytayotganda Nortoyni ko'rib qolishdi.	✓	
6.	Baliq ovidan so'ng bolalarning kayfiyati yomon edi.		✗

3-topshiriq. So'zlarni o'qing. To'g'ri yozilgan so'zlarni belgilang.

○Dilshod

○Dilshot

○chelak

○baliq

○qarmog'

○xo'rak

○Oman

○chuvalchang

○qarmoq

○Chelag

○xo'rag

○Omon

4-topshiriq. Qanday baliq turlarini bilasiz? Ularni yozing. "Klaster" metodi.



V.Darsni yakunlash va o`quvchilarni baholash.

Savol-javob o`tkaziladi.

–She`rning davomini o`ylab toping.Keyingi voqealar rivoji qanday davom etishini o`ylab ko`ring.

–She`rdagi qaysi misra sizga ko`proq yoqdi?

Darsda faol qatnashgan o`quvchilar baholab, rag`batlantiriladi.

VI.Uyga vazifa berish.

She`rni ifodali o`qing, she`r mavzusiga mos rasm chizing.

14-mavzu: "Odob". Hikoya (Muhabbat Hamidova)

Darsning maqsadi:

**a)ta`limiy:**O`quvchilarni hikoya matni bilan tanishtirish, mazmunini tushuntirish,hikoyani ifodali o`qishni o`rgatish.

b)tarbiyaviy: O`quvchilarga kattalarni hurmat qilishni, odobli bo`lishni,odob-axloq qoidalariga rioya qilishni o`rgatish,ularni yaxshi insoniy fazilatlarga ega qilib tarbiyalash.

c)rivojlantiruvchi: O`quvchilarning ifodali o`qish ko`nikma va malakalarini , ijodiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

Dars turi:Yangi tushuncha,bilimlarni shakllantiruvchi

Dars metodi: Suhbat, tushuntirish,savol-javob, "Aqliy hujum" usuli, "Maqollar zanjiri" ta`limiy o`yini.

Dars jihozi: Mavzuga oid rangli rasmlar, tarqatma materiallar

Darsning borishi:

I.Tashkiliy qism.

Salomlashish. O`quvchilarni darsga hozirlash. Ma`naviyat daqiqasi o`tkazish.

II.Uy vazifasini so`rash va o`tilgan mavzuni mustahkamlash.